

DAVLAT HOKIMIYATI ORGANLARI TIZIMIDA HOKIMLIK INSTITUTI TUSHUNCHASI VA UNING RIVOJLANISHI.

Aliqulov Komiljon Urol o'g'li

O'zbekiston

Respublikasi IIV Surxondaryo akademik
litseyi Huquqshunoslik fani o'qituvchisi

94-462-57-73

komilaliqulov93@gmail.com

O'zbekiston mustaqillikka erishgach, uni oldida ko'plab vazifalar qatorida mahalliy miqyosda hokimiyatni tashkil qilish vazifasi ham paydo bo'ldi.

Avvalo, Mustaqillikning ilk kunlaridanoq O'zbekiston Respublikasining birinchi prezidenti I. Karimov tashabbusi va bevosita rahnamoligida davlat va jamiyat qurilishining o'zimizga xos modelini vujudga keltirish, davlat boshqaruvining yangi, zamonaviy va samarali tizimini tashkil etish va rivojlantirishning tashkiliy-huquqiy sharoitlarini yaratish borasida tizimli, bosqichma-bosqich islohotlar strategiyasi belgilab olindi.

Shuningdek, Respublikamizda bozor iqtisodiga o'tish jarayoni yangi-yangi ijtimoiy munosabatlarning, ayniqsa, mulk munosabatlarning vujudga kelishiga sabab bo'ldi. O'zini o'zi mablag' bilan ta'minlash, xo'jalik yuritishning yangi ko'rinishlari vujudga keldiki, bularga eskicha usul bilan, eski organlar bilan rahbarlik qilib bo'lmas edi. Yangi sharoitda, bu ulkan vazifalarni bajaruvchi, mas'uliyatni his qiluvchi davlat organi zarur bo'lib qoldi. Bunday davlat organi o'zi masalalarni tezkorlik bilan hal qilish qobiliyatiga ega bo'lishi va o'z harakatiga javob bera bilishi kerak edi. Ana shularning hammasi mahalliy ijro hokimiyati organlarini yakkaboshchilik asosida

tashkil qilish maqsadga muvofiqligini ko'rsatdi. Bunday organ sifatida hokimlik instituti paydo bo'ldi.

1992 yil 4 yanvarda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasining mahalliy hokimiyat idoralarini qayta tashkil etish to'g'risida"¹gi qonuniga muvofiq respublikaning hamma hududida mahalliy vakillik va ijro hokimiyati organi sifatida hokim lavozimi ta'sis etildi.

Mahalliy vakillik va ijro hokimiyati organi faoliyatida yakkaboshchilikning tiklanishi, o'zbek davlatchiligi milliy an'analarining tiklanishi desak xato qilmaymiz.

Shu o'rinda, Ijro hokimiyatini amalga oshiruvchi organni kollegial organdan yakkaboshchilik asosida ish yurituvchi organga aylantirishni muhim bir sababi, sovet davrida uzoq vaqt mavjud bo'lib kelgan ijro organi - ijroiya qo'mitalar kollegial organ bo'lib, uning tarkibida rahbarlar bilan birga oddiy kishilar ham bo'lar edi. Lekin asosan masalalar ijrokom raisi tomonidan hal qilinib, ijrokom tarkibida oddiy mehnatkashlarning bo'lishi, ko'proq zarur paytlarda ijrokom rahbarlariga mas'uliyatni boshqalarga yuklashga (agar qabul qilingan qaror, amalga oshirilgan tadbirlar o'zini oqlamasa, noto'g'ri chiqib qolsa) sabab bo'lar edi. YA'ni kollegiyachilik ijrokom rahbarlari uchun hisob berish vaqtida «himoya» vositasi bo'lib xizmat qilar edi.

Fikrimizcha, Davlat ishlarini, ijro ishlarini amalga oshirishda yakkaboshchilik o'zining ijobiy tomonlari bilan namoyon bo'lgan. YA'ni unda mas'uliyat, javobgarlik hissi kuchli bo'lgan va alohida shaxslarning obro'si, aholini samarali boshqarishda muhim omillardan hisoblangan.

1992 yil 4 yanvardagi qonun - hokim lavozimini ta'sis etar ekan, buning sababini, hokimlarning mavqei, tizimi, ularni tashkil qilish tartibi, vazifasini belgilab berdi.

¹ Қаранг: "Ўзбекистон Республикасининг маҳаллий ҳокимияти идораларини қайта ташкил этиш тўғрисида"ги конституциявий қонун// Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгашининг ахборотномаси. 1992 йил. 3-сон. 146-модда.

Qonunda ijro hokimiyatini mustahkamlashning asosiy sababi qilib, iqtisodiyotning bozor munosabatlariga o'tish sharoiti ko'rsatildi. Ya'ni bozor munosabatlari sharoitida ijro aniq bo'lishi kerak. Bozor munosabati yangi-yangi munosabatlarni vujudga keltirdi va bu munosabatlarni oqilona tartibga solish uchun esa albatta samarali ijro hokimiyati bo'lishi zarur edi.

Shuningdek, Qonunda birinchi marta rasmiy qonun darajasida mahalliy vakillik hokimiyati va ijroiya boshqaruv hokimiyati e'tirof etildi. Shu bilan mustaqil mahalliy ijro hokimiyati organlari vujudga keldi. Hokimlar faqatgina ijro hokimiyati organlarigagina emas, mahalliy vakillik organlariga ham rahbarlik qiladigan organ sifatida mustahkamlandi. Hokimlar viloyatlarda, tumanlarda va shaharlarda ta'sis etiladigan bo'ldi.

Bunda, mahalliy vakillik va ijro hokimiyati organlarida bog'liqlikni kuchaytirish maqsadida, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlari O'zbekiston Prezidenti tomonidan, tuman va shahar hokimlari viloyat va Toshkent shahar hokimlari tomonidan lavozimiga tayinlanishi va lavozimidan ozod qilinishi hamda bu masalalar tegishli xalq deputatlari Kengashlari tomonidan tasdiqlanishi tartiblari belgilandi. Qonunda Toshkent shahar hokimini tayinlash va lavozimidan ozod qilishga tegishli qonun qoidalari qo'llanilmasligi ko'rsatilgan. Chunki, Toshkent shahar hokimi Toshkent shahar aholisi tomonidan saylangan edi.

Qonunda hokimning ijro apparati, shu vaqtgacha amal qilib kelgan Kengash va ijroiya qo'mitasi vazifalarini bajaradi deyilgan.

Umuman olganda, bu qonun mustaqil O'zbekiston Respublikasida hokimiyatning bo'linish prinsiplaridan kelib chiqib, yangi shakldagi (yakkaboshchilik asosida) mustaqil ijro hokimiyatini vujudga keltirdi. Natijada uzoq yillar davlat organlari tizimida mavjud bo'lgan, qonunga binoan sovetlarga bo'ysungan aslida partiya organlarining qaramligiga tushib qolgan ijro organlari-ijroiya qo'mitalari tugatildi.

О‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”²gi qonunning 1-moddasiga muvofiq viloyat, tuman, shahar hokimi viloyat, tuman va shaharning oliy mansabdor shaxsi deb belgilab qo‘yildi.

Har qanday mamlakatning siyosiy tizimida mahalliy boshqaruv institutlari muhim o‘rin tutadi. Bu institut davlat boshqaruvining xalqqa eng yaqin bo‘g‘inlaridan biri bo‘lib, ular bevosita yuqori davlat organlari tomonidan qabul qilinadigan normativ-huquqiy hujjatlar va davlat dasturlarining joylardagi ijrosini ta‘minlaydi³.

Boshqaruv sohasini markazlashtirishni cheklash, bu boradagi vazifalarning bir qismini respublika darajasidan viloyat, tuman va shahar miqyosiga o‘tkazish, O‘zbekistonda mahalliy o‘zini o‘zi boshqarishning noyob shakli bo‘lgan mahalla tizimini shakllantirish masalalariga katta ahamiyat qaratildi⁴.

Binobarin, davlat qurilishi va boshqaruvi sohasida amalga oshiriladigan islohotlardan ko‘zlangan asosiy maqsad – hokimiyat barcha tarmoqlari, jumladan ijro hokimiyati bo‘lmish hukumat faoliyatining mas‘uliyati va samarasini oshirish hisoblandi.

Mazkur maqsadga erishish uchun mamlakatimizda qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi, sud hokimiyati organlarini isloh qilish bilan bir vaqtda mahalliy davlat hokimiyati tizimini isloh qilish borasida ham bosqichma-bosqich ishlar amalga oshirildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev haqli ravishda e‘tirof etganidek, “Biz yurtimizda ko‘ppartiyaviylik tizimini mustahkamlab, iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlarda partiyalarning rolini oshirishga ko‘maklashamiz. Kachonki

² “Маҳаллий давлат ҳокимияти тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикасининг қонуни//Ўзбекистон Республикаси Қонун ҳужжатлари тўплами, 2004 й., 51-сон, 514-модда

³ Аҳмедов. А. Japan`s experience and practices in improving government agencies`effectiveness(on the example of local authorities) //Universiteti xabarлари, 2020,[1/3] ISSN 2181-7324. – С. 40.

⁴ Каримов И.А. Мамлакатимизда демократик ислохотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини ривожлантириш концепцияси: Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Қонунчилик палатаси ва Сенатининг қўшма мажлисидаги маъруза. 2010 йил 12 ноябрь / И.Каримов. – Тошкент:

siyosiy partiyalarning faolligi oshib, parlament faoliyati doirasida ular oʻrtasida sogʻlom raqobat va bahs-munozara muhiti shakllansa, shundagina vakillik hokimiyati organlari ham samarali faoliyat koʻrsatadi. Buni hayotning oʻzi hammamizga har kuni koʻrsatyapti. Agar rahbarlarimiz xalq vakillari bilan maslahat qilib ish tutsa, xato kam boʻladi. Shuning uchun vakillik hokimiyati organlari ishi samarali boʻlishida partiyalarimiz faolligini oshirishimiz shart. Xalq deputatlari mahalliy kengashlarida partiya guruhlarining vakolati va rolini oshirish, ayniqsa, ijro hokimiyati organlari faoliyatini nazorat qilish borasidagi taʼsirini yanada kuchaytirish zarur”⁵.

Davlat hokimiyati tarmoqlari oʻrtasida oʻzaro tiyib turish va manfaatlar muvozanati tizimini shakllantirish jarayoni Oʻzbekiston Respublikasi mustaqilligining birinchi kunlaridan boshlab amalga oshirilib kelinmoqda. Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi hokimiyatlar boʻlinishini xalq hokimiyatchiligini amalga oshirishning eng muhim sharti sifatida belgilab, bu borada asosiy mexanizmlarni mustahkamlab qoʻydi. Konstitutsiyaga muvofiq Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Majlisi – qonun chiqaruvchi hokimiyatni, Vazirlar Mahkamasi – ijro etuvchi hokimiyatni, Konstitutsiyaviy va Oliy sud – sud hokimiyatini amalga oshiradi. Hokimiyatning har bir tarmogʻi mustaqil boʻlib, biri ikkinchisining ishiga aralashmagan holda oʻzining konstitutsiyaviy vakolatlari doirasida faoliyat olib boradi. Konstitutsiyaning 89-moddasiga binoan davlat hokimiyati organlarining kelishilgan holda faoliyat yuritishini hamda hamkorligini Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti – davlat boshligʻi taʼminlaydi⁶.

“Mahalliy davlat hokimiyati toʻgʻrisida”gi qonunga 2017 yil 14 sentabrdagi kiritilgan oʻzgartirishga koʻra, mahalliy kengashlar ijroiya hokimiyati boʻlimlari, boshqarmalari, boshqa tarkibiy boʻlinmalari rahbarlarining hisobotlarini eshitish huquqiga ega boʻldi⁷.

Rivojlangan demokratik davlatlarning umumeʼtirof etilgan tajribalaridan kelib

⁵ Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни катъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз.2017. – Тошкент: Ўзбекистон НМИУ. – Б.44.

⁶ Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. Т.: “Ўзбекистон” 2019 йил

⁷ Ўзбекистон Республикаси Қонун ҳужжатлари тўплами, 2017 й., 37-сон, 978-модда.

chiqqan holda hamda hukumat faoliyati ustidan parlament nazoratini kuchaytirish maqsadida 2017 yilda Konstitutsiyada Qonunchilik palatasiga O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining taqdimiga binoan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi a'zoliciga nomzodlarni keyinchalik ularni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan lavozimlarga tasdiqlash uchun ko'rib chiqish va ma'qullash⁸ huquqi berildi.

Vazirlar Mahkamasiga O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga har yili mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy hayotining eng muhim masalalari yuzasidan ma'ruzalar taqdim etish vazifasi yuklandi. Asosiy Qonunimizning avvalgi tahririga ko'ra, bunday ma'ruzalarni parlamentning ko'rib chiqish uchun taqdim etish O'zbekiston Respublikasi Prezidenti vakolatiga kirar edi.

Davlat boshqaruvi tizimida barqarorlik, izchillikni ta'minlash, ijro etuvchi hokimiyatning mustaqil faoliyat ko'rsatish kafolatlarini kuchaytirish maqsadida amaldagi Vazirlar Mahkamasi yangi saylangan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi oldida o'z vakolatlarini zimmasidan soqit qilishi bo'yicha Konstitutsiyaning 116-moddasida belgilangan normalar mamlakat Prezidentining qaroriga ko'ra, hukumat ayni shu davrda, Vazirlar Mahkamasining yangi tarkibi shakllantirilganga qadar o'z faoliyatini davom ettirib turishi haqidagi qoidalar bilan to'ldirildi.

Xulosa qilib aytganda O'zbekistonda hokimlik institutining joriy qilinishi mamlakatimizda mahalliy davlat boshqaruvi tizimini isloh etishning muhim bosqichi bo'ldi va joylardagi ijro hokimiyatini amalga oshirishda samarali mexanizm sifatida o'zini to'la oqladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. T. O'zbekiston, 2017

⁸ Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси: 03/19/527/2706-сон 06.03.2019 й.

2. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. T. O‘zbekiston. 2017
3. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. T.O‘zbekiston. 2017
4. Jumayev Y.G. Viloyat, tuman va shahar hokimliklarining huquqiy holati: Yurid. fan. nomzodi diss. avtoreferati. – T., 2004. – 33 b
5. Chulliyev A. O‘zbekiston Respublikasi hokimliklari huzurida tuziladigan komissiyalarning huquqiy holati: Yurid. fan. nomzodi diss. avtoreferati. – T., 2004. – 13 b;
6. Muxamedov O‘.X. O‘zbekiston Respublikasida qonunchilikni tizimlashtirishning nazariy va amaliy muammolari. Dissertatsiya. Yur. Fan. Dok. – T. ,2010. – 370b.
7. Axmedshayeva M.A. Davlat hokimiyati tizimida ijro hokimiyati. 12.00.01 – Davlat va huquq nazariyasi va tarixi; siyosiy va huquqiy ta’limotlar tarixi ixtisosligi bo‘yicha yuridik fanlar doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – Toshkent, 2010. – b 87